



ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK SHE'RIYATIDA SHAXS IDENTITETINING BADIY TALQINI (Usmon Azimning "Iqrorklik" she'ri tahlili asosida)

Qodirov Abdulazizbek Luqmonjon o'g'li,
Qo'qon universiteti Andijon filiali dotsenti, PhD.
Abdulazizzzkodirov@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-oktabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 8-oktabr 2025-yil
Jurnal soni: 16
Maqola raqami: 53
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1761>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

shaxs identiteti, lirik qahramon, o'zlik, teatr metaforasi, haqiqiy o'zlik, narrativ identitet, dramaturgik yondashuv, axloqiy identitet, refleksiv o'zlik, ekzistensializm, Usmon Azim, zamonaviy o'zbek she'riyati

ANNOTATSIYA

Maqolada Usmon Azimning "Iqrorklik" she'rida shaxs identitetining ifodalanishi dunyoning teatr sifatidagi markaziy metaforasi orqali tadqiq etiladi. Tahlil lirik qahramonning ijtimoiy kutilmalar, tanqid, qo'rquv va tashqaridan yuklangan rollar bilan to'qnashgan holda o'zining haqiqiy "men"ini saqlab qolish uchun olib boradigan kurashiga qaratilgan. She'rda identitet taqlid yoki moslashuv sifatida emas, balki vijdon, e'tiqod, taqdir va ichki haqiqatga sadoqat tarzida talqin qilinadi. Erving Goffmanning dramaturgik yondashuvi ijtimoiy ijro va o'zini namoyon etish o'rtasidagi munosabatni izohlashda qo'llanadi, Pol Rikymorning narrativ identitet nazariyasi esa o'zlikning tanlovlar, sinovlar va davomiylik jarayonida qanday shakllanishini yoritadi. Charlz Teylorning identitetning axloqiy mohiyati haqidagi qarashlari hamda Entoni Giddensning o'zlikni refleksiv loyiha sifatida talqin etishi lirik qahramonning axloqiy pozitsiyasini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Tadqiqot yakunida "Iqrorklik" zamonaviy o'zbek poetik-falsafiy tafakkurida qarshilik, mas'uliyat, o'zini anglash va o'zining haqiqiy roliga sadoqatga tayangan shaxs identitetining dramatik-ekzistensial modelini ifodalashi asoslanadi.

Kirish. Zamonaviy gumanitar tafakkurda shaxs identiteti insonning o'zini anglashi, jamiyatdagi o'rini belgilashi, ichki e'tiqodi va tashqi ijtimoiy talablar o'rtasidagi munosabatni tushuntirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy kategoriyalardan biri sanaladi. Globallashuv, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar hamda shaxsga qo'yiladigan turli ijtimoiy talablarning kuchayishi insonning o'z "men"ini saqlab qolishi masalasini yanada dolzarb holga keltirmoqda. Shu sababli identitet muammosi psixologiya, sotsiologiya va falsafa bilan bir qatorda adabiyotshunoslikda ham faol tadqiq etilmoqda. Badiiy adabiyotda esa mazkur hodisa abstrakt nazariy tushuncha sifatida emas, balki qahramonning ichki kechinmalari, tanlovi, ijtimoiy muhit bilan ziddiyati, o'zlikni anglash va uni himoya qilish jarayonlari orqali estetik shakl kasb etadi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida ham shaxsning o'zligini anglash, ichki erkinlik, vijdon, taqdir, jamiyat oldidagi mas'uliyat hamda tashqi bosimga qarshi ruhiy qarshilik masalalari muhim poetik mavzulardan biriga aylangan. Bu jihatdan O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim ijodi alohida e'tiborga molik. Shoir lirikasida insonning murakkab ruhiy dunyosi, jamiyat bilan munosabati, o'z haqiqatiga sodiqligi va ichki erkinlikka intilishi dramatik hamda falsafiy yo'sinda ifodalanadi. Uning "Iqrorklik" she'rida esa mazkur muammolar "dunyo – teatr" metaforasi vositasida yaxlit poetik tizimga aylantirilgan.

She'rda lirik qahramon hayotni sahna, insonni esa muayyan rolni ijro etuvchi shaxs sifatida idrok qiladi. Biroq bu rol jamiyat tomonidan majburan berilgan niqob yoki boshqalarning istagiga moslashish vositasi emas. Aksincha, "o'z roli" tushunchasi qahramonning ichki mohiyati, vijdoni, e'tiqodi va hayotiy pozitsiyasini ifodalovchi poetik timsolga aylanadi. "O'zimizning rolini o'ynayman faqat" tarzidagi qat'iy iqrorklik qahramonning tashqi baho, malomat, qo'rquv va tahdidlar qarshisida ham o'zligini yo'qotmaslikka bo'lgan intilishini namoyon etadi. Shu jihatdan she'rda shaxs identiteti tayyor va o'zgarimas holat sifatida emas, balki tanlov, qarshilik, mas'uliyat va o'zlikka sadoqat orqali shakllanadigan faol ruhiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolaning maqsadi Usmon Azimning "Iqrorklik" she'rida shaxs identitetining poetik talqinini aniqlash, uning badiiy ifoda mexanizmlarini ochib berish hamda "teatr", "sahna", "rol", "rejissyor", "tanqidchi" va "taqdir" obrazlarining lirik qahramon o'zligini ifodalashdagi funksiyasini yoritishdan iborat. Shu maqsadda asardagi shaxs va jamiyat, ichki haqiqat va tashqi talab, taqdir va iroda, asl "men" va ijtimoiy niqob o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi. Tadqiqot Usmon Azim she'riyatida shaxs identitetining dramatik-ekzistensial modelini aniqlash hamda zamonaviy o'zbek lirikasida o'zlik masalasining poetik-falsafiy talqinini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Shaxs identiteti muammosi zamonaviy gumanitar fanlarda psixologiya, sotsiologiya, falsafa va adabiyotshunoslik kesishmasida o'rganiladigan muhim nazariy masalalardan biridir. Mazkur tushunchaning ilmiy shakllanishida E. Eriksonning tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Olim identitetni shaxsning o'zligini anglash, hayotiy davomiylikni his etish va jamiyatdagi o'rini belgilash jarayoni bilan bog'liq holda talqin qiladi [5, 67-b.]. Keyinchalik

J.Marsia Erikson konsepsiyasini rivojlantirib, identitetning shakllanishini shaxsning tanlov, izlanish va muayyan pozitsiyani egallashi bilan bog'liq jarayon sifatida izohladi [6, 98-b.]. G.Mid qarashlarida esa shaxsning "men"i ijtimoiy munosabatlar va boshqalar bilan muloqot jarayonida shakllanadigan hodisa sifatida tushuntiriladi [7, 23-b.]. Shaxsning jamiyatdagi xulq-atvori va o'zini namoyon etish shakllarini tahlil qilishda E.Goffmanning dramaturgik konsepsiyasi muhim nazariy ahamiyatga ega. Olim kundalik ijtimoiy hayotni teatrga, inson faoliyatini esa muayyan auditoriya qarshisida bajariladigan rolga qiyoslaydi [1, 15-b.]. Ushbu yondashuv Usmon Azimning "Iqrorklik" she'ridagi "dunyo – teatr", inson – ijrochi, hayot esa sahna tarzidagi poetik modelni anglash imkonini beradi. Biroq she'rda Goffman tasvirlagan ijtimoiy moslashuvdan farqli ravishda lirik qahramon boshqalar kutgan rolni bajarishga emas, o'zining ichki haqiqatiga sodiq qolishga intiladi.

P.Rikymorning narrativ identitet nazariyasi ham shaxs o'zligini badiiy matnda tadqiq etish uchun muhim metodologik asos yaratadi. Rikyor inson identitetini tayyor va o'zgarimas mohiyat emas, balki vaqt davomida kechgan voqealar, tanlovlar, xotira va tajriba orqali shakllanuvchi jarayon sifatida talqin qiladi [2, 113-140 b.]. "Iqrorklik"dagi lirik qahramonning takroran "sahnaga chiqishi", malomat, tahdid va qurbonliklarga qaramay o'z roldan voz kechmasligi ham uning identiteti sinovlar davomida tobora mustahkamlanishini ko'rsatadi. Ch.Teylor shaxs identitetining axloqiy va qadriyatga asoslangan tomonlariga e'tibor qaratib, insonning o'zini anglashi uning e'tiqodi, axloqiy mezonlari va hayotiy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi [3, 5-b.]. Bu konsepsiya "Iqrorklik" lirik qahramonining "birovning yozgani"ga bo'ysunmasligi, taqlidchilikni rad etishi va o'z ichki haqiqatiga sodiqligini sharhlashda muhim ahamiyat kasb etadi. A. Giddens esa zamonaviy sharoitda o'zlikni muntazam ravishda kuzatib, qayta anglab va shakllantirib boriladigan "refleksiv loyiha" sifatida baholaydi [4, 52-55 b.]. Shu jihatdan Usmon Azim lirik qahramoni ham o'z rolini anglaydigan, uni ongli ravishda qabul qiladigan va tashqi bosim qarshisida qayta-qayta tasdiqlaydigan faol poetik subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur nazariy qarashlarning umumlashtirilishi "Iqrorklik" she'rida shaxs identitetini faqat psixologik holat yoki ijtimoiy mansublik sifatida emas, balki ijtimoiy rol, axloqiy tanlov, taqdir, ichki e'tiqod va o'zlikka sadoqat kesishmasida shakllanadigan murakkab badiiy-falsafiy hodisa sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda gernevistik, struktur-semantik, kontekstual va nazariy-qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Gernevistik yondashuv orqali Usmon Azimning "Iqrorklik" she'ridagi lirik qahramonning ichki kechinmalari, o'zlikni anglash jarayoni, taqdir, e'tiqod va vijdon bilan bog'liq ma'nolar talqin qilindi. Struktur-semantik tahlil asosida she'rning markaziy poetik birliklari – "dunyo", "teatr", "sahna", "rol", "rejissyor", "tanqidchi" va "taqdir" obrazlarining o'zaro munosabati hamda ularning shaxs identitetini ifodalashdagi funksiyasi aniqlandi. Kontekstual tahlil she'riy misralarni asarning umumiy g'oyaviy-kompozitsion tizimi doirasida sharhlashga xizmat qildi. Xususan, lirik qahramonning "o'z rolini o'ynashi" haqidagi takroriy

iqrorlari alohida misra sifatida emas, balki uning ijtimoiy bosim, malomat, qoʻrquv va tahdidga qarshi ichki pozitsiyasini belgilovchi yaxlit semantik tizim tarkibida oʻrganildi. Nazariy-qiyosiy metod yordamida esa sheʼrdagi shaxs va ijtimoiy rol munosabati E. Goffmannning dramaturgik modeli, identitetning vaqt va tajriba davomida shakllanishi P. Rikyorning narrativ identitet konsepsiyasi, lirik qahramonning axloqiy pozitsiyasi Ch. Teylor qarashlari, oʻzlikni ongli ravishda anglash va tasdiqlash jarayoni A. Giddensning refleksiv oʻzlik nazariyasi bilan qiyosiy ravishda talqin qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida Usmon Azimning “Iqrorlik” sheʼri, tadqiqot predmeti sifatida esa asarda shaxs identitetining poetik ifodalanish mexanizmlari belgilandi. Tahlil davomida lirik qahramonning oʻzini anglash jarayoni, tashqi ijtimoiy taʼsirlarga munosabati, “oʻz roli”ga sodiqligi va taqdiri axloqiy masʼuliyat sifatida qabul qilishi asosiy tahlil mezonlari sifatida olindi. Mazkur metodologik yondashuv sheʼrdagi identitet hodisasini individual kechinma doirasidagi emas, balki ijtimoiy, axloqiy va ekzistensial qatlamlarning oʻzaro birligi sifatida yoritish imkonini berdi.

Natijalar. Oʻzbekiston xalq shoiri Usmon Azimning “Iqrorlik” sheʼri zamonaviy oʻzbek sheʼriyatida shaxs identitetining murakkab, dramatik va falsafiy tabiatini yorqin ifodalagan yetuk poetik asarlardan biridir. Lirik qahramon oʻzini anglashga intilar ekan, bu jarayonni shunchaki hissiy kechinmalar yigʻindisi sifatida emas, balki hayotdagi asl maqsadi, ichki eʼtiqodi, taqdiri hamda murosasiz hakam boʻlgan vijdoni oldidagi masʼuliyati bilan bogʻliq hodisa sifatida talqin qiladi.

Dunyomi?

Teatr!

Iqrorman, iqror.

Xudoga topshirib jonimni ammo –

Sahnaga otilib chiqsam necha bor

Dunyo tushinsin deb, takror-u takror

Oʻzimning rolimni etaman ijro [8, 143-b.].

Sheʼrning dastlabki misralaridanoq dramatik ruh yaqqol seziladi. “Dunyomi? Teatr!” tarzidagi keskin savol-javob inson hayotini sahnaga, yashash jarayonini esa muayyan rolni ijro etishga qiyoslaydi. Biroq teatr obrazi tashqi dunyoning soxtaligi yoki hayotning oddiy oʻyning aylanishi haqidagi maʼnoga borib taqalmaydi. U jamiyat talablariga duch kelgan shaxsning ichki vijdoni va haqiqiy oʻzligini asrab qolish yoʻlidagi kurashini ifodalovchi yaxlit badiiy model darajasiga koʻtariladi.

“Rol” obrazi sheʼrning konseptual va kompozitsion markazini tashkil etadi. “Oʻzimning rolimni etaman ijro”, “Oʻzimning rolimni oʻynayman faqat” kabi takroriy ifodalar orqali lirik qahramon oʻz hayotiy pozitsiyasini qatʼiy bayon qiladi. Bu takrorlar shunchaki poetik taʼkid vazifasini bajarmaydi; ular shoir shaxsiy identitetining barqarorligini tasdiqlovchi ichki iqror sifatida namoyon boʻladi. Mazkur satrlar orqali oʻquvchi shoir qalbining eng teran ovozi eshitadi va uning haqiqiy shaxsiy qiyofasiga yaqinlashadi.

Lirik qahramon oʻz ichki haqiqatlariga sodiqligini taʼkidlar ekan, “rol”ni jamiyat tomonidan unga yuklangan ijtimoiy niqob sifatida qabul qilmaydi. Uning talqinida hayot sahnasida ijro etiladigan rol insonning ichki mohiyati, vijdon oldidagi tanlovi va mavjudligining maʼnosini anglatadi. Demak, sheʼrda identitet boshqalarga taqlid qilish yoki ularning kutilmalariga mos yashash orqali emas, balki oʻz ichki haqiqatiga sodiq qolish vositasida namoyon boʻladi.

Usmon Azim sheʼridagi identitetning bunday talqini Erving Goffmannning ijtimoiy hayotni dramaturgik jarayon sifatida tushuntiruvchi nazariyasi bilan muayyan mushtaraklikka ega. Goffman “The Presentation of Self in Everyday Life” asarida kundalik ijtimoiy xulq-atvorni teatr ijrosiga qiyoslab, inson koʻpincha boshqalar qarshisida oʻzining muayyan obrazini namoyish etishini taʼkidlaydi [1, 15-b.]. Biroq “Iqrorlik”da bu model yangi poetik mazmun kasb etadi. Lirik qahramon ijtimoiy sahnada rol ijro etsa-da, tomoshabin kutayotgan taassurotni yaratishga urinmaydi. Aksincha, kuzatuvchi, tanqidchi, rejissyor yoki malomat qiluvchilarning hukmidan qatʼi nazar, oʻzining haqiqiy rolini ado etishga intiladi. Shunday qilib, sheʼrdagi “rol” ijtimoiy muhitga moslashish vositasi emas, balki shaxsiy haqiqatni saqlash va uni boshqalar oldida qatʼiy namoyon etish usulidir.

Birovning aytgani menga qilmas kor:

Boshimga tushsa ham necha malomat –

Sahnaga otilib chiqsam necha bor,

Birovning yozgani boʻladi bekor –

Oʻzimning rolimni oʻynayman faqat [8, 143-b.].

“Birovning aytgani”, “birovning yozgani”, “rejissyor” va “tanqidchi” obrazlari lirik qahramon identitetiga bosim oʻtkazuvchi, uni oʻzgartirish va begona qoliplarga solishga intiluvchi tashqi kuchlarni ifodalaydi. Shoir shu obrazlar orqali shaxs va jamiyat, shaxsiy iroda va tashqi talablar, haqiqiy “men” va unga zoʻrlilik bilan kiydirilayotgan niqob oʻrtasidagi ziddiyatni ochib beradi.

“Birovning yozgani boʻladi bekor” misrasi, ayniqsa, identitetning oldindan belgilangan modellarga boʻysunmasligini hamda qatʼiy qoliqlar insonning asl mohiyatini namoyon etishga xalaqit berishini anglatadi. Shu bois lirik qahramon oʻzini boshqa birov yozgan ssenariydagi passiv ijrochi sifatida emas, balki oʻz taqdirini anglaydigan va zimmasiga yuklangan masʼuliyatni ado etishga intiladigan faol subyekt tarzida koʻrsatadi.

Bu fikrlar Pol Rikyorning narrativ identitet konsepsiyasini yodga soladi. Rikyor fikricha, inson oʻz identitetini vaqt davomida yuz beradigan voqealar, tanlovlar, sinovlar va xotiralar asosida shakllanadigan oʻz hayot hikoyasi orqali anglaydi. “Inson kim?” degan savolga javob faqat uning doimiy xususiyatlarida emas, balki bosib oʻtgan yoʻli va ana shu yoʻlga bergan maʼnosida ham mujassam boʻladi.

“Iqrorlik”dagi lirik qahramon ham oʻzini bir lahzada tayyor holda mavjud boʻlgan shaxs sifatida emas, balki uzluksiz ijro, qarorlar va sinovlar jarayonida shakllanayotgan shaxsiyat sifatida namoyon qiladi. Uning sahnaga qayta-qayta chiqishi, malomat, tahdid va qurbonliklardan oʻtishi identitetning tayyor holatda berilmasligini, aksincha, hayotda uchraydigan qarshiliklar orqali toblanib, mustahkamlanishini koʻrsatadi.

Koʻksin changallaydi qancha rejissyor –

Qoʻrqoq miyasiga qoni quyilgan –

Ammo menda yoʻqdir zarra ixtiyor,

Rolimni yozmishdir azaldan jabbor,

Menga, “adashma” deb, faqat buyrilgan [8, 143-b.].

Taqdir va inson irodasi oʻrtasidagi munosabat ham sheʼrning markaziy masalalaridan biri sifatida namoyon boʻladi. “Rolimni yozmishdir azaldan jabbor” misrasi inson hayotidagi barcha holatlarni oʻz xohishiga koʻra boshqara olmasligini anglatadi. Oʻn sakkiz ming olamni yaratgan Jabbor har bir insonning taqdirini belgilash bilan birga, unga oʻziga xos xarakter va ruhiy imkoniyat ham ato etadi.

Ayrim kishilar dunyoviy manfaat yoki qoʻrquv sabab Yaratgan belgilagan yoʻldan chekinishi mumkin, boshqalar esa ularga ato etilgan aql va vijdon vositasida oʻz asl mohiyatiga muvofiq yashaydi. Lirik qahramon “qoʻrqoq rejissyor” talablariga boʻysunmasligi orqali oʻz shaxsiyatining tashqi taʼsirlardan kuchliroq ekanini namoyish etadi. Bosim qanchalik ogʻir boʻlmasin, u “adashma” degan ilohiy amrdan voz kechmaydi.

Bu gʻoya manfaat, qoʻrquv va dunyoviy mayllar girdobida qolgan inson uchun Yaratganning amrini chetga surib, boshqa kishilarning talabini undan ustun qoʻyish axloqan nomaqbul ekanini anglatadi. Lirik qahramon taqdiri chekinish uchun bahona qilmaydi; aksincha, oʻziga yuklangan rolni toʻlaqonli ado etishni axloqiy burch deb biladi.

Shu sabab sheʼrda shaxs identiteti irodaning mutlaq erkinligi bilan emas, balki taqdir belgilagan chegaralar ichida ham oʻzligini saqlab qolish qobiliyati bilan belgilanadi. Aynan shu jihat asarning ekzistensial mazmunini yanada chuqurlashtiradi.

Dunyo nodon emas, sezib turibdi:

Qancha baxtu taxtim sahnada qurbon.

Taqdir qirmiz qonday izib turibdi,

Garchi tahdid bagʻrim ezib turibdi,

Rolimni oʻynashga topaman imkon [8, 143-b.].

Bu bandda yuqorida tahlil qilingan lirik qahramonning sifatleri va axloqiy pozitsiyasi yana bir bor qatʼiy tasdiqlanadi. U sahnadagi har bir qadamida xavf mavjudligini his etadi. Uning ijrosi dunyo tomonidan hech qachon xayrixohlik bilan qarshi olinmagan, chunki shoir taʼkidlaganidek, dunyo sodda ham, befarq tomoshabin ham emas. U oʻz sahnasidagi ijrochining belgilangan chegaralardan chiqib, mustaqil harakat qilishini istamaydi.

Shunga qaramay, qahramon bu sahnada koʻplab baxt va mavqelarini qurbon qilgan, butun umrini oʻz rolini ado etishga bagʻishlagan boʻlsa-da, bosim uni ezayotgan vaziyatda ham haqiqiy rolini bajarish uchun imkon topishda davom etadi. Qarama-qarshi kuchlar orasidan topilgan ana shu imkon oʻquvchi nazarida uning axloqiy qadrini yanada oshiradi.

Muhokama. Tashqi talablar sabab qalb istaklariga quloq tuta olmaydigan, ichki isyonini yashirib, shaxsiy intilishlarini cheklab yashaydigan oʻquvchi taqdir “qirmiz qonday” iz solayotgan bir paytda ham oʻzligidan bir qadam chekinmaydigan insonga beixtiyor hurmat bilan qaraydi.

Qiziqchi emasman va yo taqlidchi –

Turfa qiyofadan yoʻq menda rohat.

Ha, dunyo – teatr!

Haqsan, tanqidchi!

Garchi hayotimga bu hol tahdidchi –

Oʻzimning rolimni oʻynayman faqat! [8, 144-b.].

Charles Teylor “Sources of the Self: The Making of the Modern Identity” asarida inson oʻz identitetini axloqiy asoslar, qadriyatlar va eʼtiqodlar orqali anglashini taʼkidlaydi [3, 5-b.]. “Iqrorlik” lirik

qahramoni ham o'zini shunchaki muayyan ijtimoiy rolni bajarayotgan kishi sifatida emas, balki aniq axloqiy-me'yoriy tamoyillarga ega va o'z mohiyatini anglab yetgan shaxs sifatida ko'rsatadi.

U o'zini na "qiziqchi", na "taqlidchi" deb biladi. Ana shu inkorlar orqali qahramon o'z identitetining chegaralarini belgilaydi. Turli qiyofalarga kirish, tashqi yuzni almashtirish yoki boshqalarning bahosiga moslashish unga rohat bermaydi. Uning uchun o'zlikning asosiy mezonini ichki haqiqatga sadoqatdir.

Demak, she'rda identitet estetik niqob sifatida emas, balki axloqiy va ma'naviy tanlov sifatida talqin qilinadi. Lirik qahramon o'zini inson sifatida angelaydi va yaratilishining ma'nosini chuqur idrok etadi. Bu anglash uni boshqalarning fikri tufayli qalb amriga qarshi bormaslikka, his-tuyg'ularini bostirmaslikka, o'zining asl nomi va mohiyatiga munosib yashashga undaydi. Shu asosda shaxs identiteti unda o'zini yaxlit va mustaqil shaxs sifatida to'liq anglash darajasiga ko'tariladi.

Shaxs identitetiga alohida e'tibor qaratgan Entoni Giddens zamonaviy sharoitda o'zlikni insonning ichki kuzatuvini orqali muntazam ravishda qayta ko'rib chiqiladigan va barpo etiladigan refleksiv loyiha sifatida ta'riflaydi [4, 53-b.]. Usmon Azim she'rining lirik qahramoni ham o'z hayotini tashqi kuchlar ixtiyoriga butunlay topshirmaydi. U doim o'z roli haqida mushohada yuritadi, uni qabul qiladi, himoya qiladi va qayta-qayta tasdiqlaydi.

Asarning "Iqrorlik" deb nomlanishi ham shu jihatdan alohida ma'noga ega. Bu yerda iqror shunchaki tan olishni emas, balki o'zining

ekzistensial haqiqatini ongli ravishda qabul qilishni anglatadi. Shu tariqa o'zini anglash jarayonida qahramon o'z shaxsiyati va xatti-harakatlarini vijdon hukmiga topshiradi hamda tashqi baholar qarshisida o'z "men"ini yana bir bor tasdiqlaydi.

Asarning dramatik mohiyati qarama-qarshi kuchlarning tizimli munosabati orqali mahorat bilan ochiladi. Dunyo teatrga, shaxs ijrochiga, taqdir ssenariyga, jamiyat tomoshabinga, rejissyor boshqaruvchi kuchga, tanqidchi esa baholovchi subyektga qiyoslanadi. Biroq ushbu tizim ichida lirik qahramon mutlaqo bo'ysunuvchi va ojiz mavjudot sifatida ko'rilmaydi. U dunyo deb atalgan sahnaga chiqadi va o'ziga ishonib topshirilgan rolni ijro etadi. Tashqi bosim va tahdidni butun vujudi bilan his qilsa-da, bu girdobda o'z identitetini yo'qotmaydi.

Xulosa. Shu ma'noda, she'rda shaxs identiteti passiv holat emas, balki qarshilik, bardoshlilik, iroda va ichki tuyg'ularga sadoqat orqali shakllanadigan faol ruhiy jarayon sifatida talqin etiladi. Shoirning asosiy badiiy yutug'i identitet muammosini teatr metaforasi orqali mavhum nazariy tushunchadan badiiy-falsafiy hodisaga aylantirganidir.

"Rol" obrazi bir vaqtning o'zida shaxsning ijtimoiy mavqeini, ekzistensial vazifasini, ijodiy mas'uliyatini va ma'naviy o'zligini ifodalaydi. Lirik qahramonning yakuniy qarori – "O'zimning rolimni o'ynayman faqat!" – zamonaviy o'zbek she'riyatida shaxs identitetining eng muhim belgilaridan birini, ya'ni inson o'z ichki haqiqatiga sodiq qolishi kerakligi g'oyasini badiiy jihatdan umumlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Goffman E. The Presentation of Self in Everyday Life. – Garden City, New York: Doubleday Anchor Books, 1959. – P.15.
2. Ricoeur P. Oneself as Another / translated by K. Blamey. – Chicago; London: The University of Chicago Press, 1992. – P. 113–140.
3. Taylor Ch. Sources of the Self: The Making of the Modern Identity. – Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1989. – P.5.
4. Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. – Stanford, California: Stanford University Press, 1991. – P.52–55.
5. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton, 1968.

6. Marcia J.E. Development and Validation of Ego-Identity Status // Journal of Personality and Social Psychology. – 1966. – Vol.3, № 5. – P.551–558.
7. Mead G.H. Mind, Self, and Society: From the Standpoint of a Social Behaviorist. – Chicago: University of Chicago Press, 1934. – P.135–164.
8. Усмон Азим. Сайланма. – Тошкент.: Шарқ нашриёт-матбаа концерни, 1995. – Б.383.
9. Норматов У. Адабиётимизнинг ярим асри // Ижод эстафетаси ишончли қўлларда. – Тошкент, 1967.